



## AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA YANGI YONDASHUVLAR ZARUR

**Prezident Shavkat Mirziyoyev aholi bandligini ta'minlash va yangi yondashuvlar asosida kambag'allikni qisqartirishga oid chora-tadbirlar taqdimoti bilan tanishdi.**

Bu yil 5 million 200 ming fuqaroning bandligini ta'minlash va 1,5 million aholini kambag'allikdan chiqarish maqsad qilingan. Birinchi marta 60 ta tuman va shahar kambag'allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantiriladi.

Mahalla bankirlari bilan birga 1,5 million aholi doimiy ishga joylashtirilib, 2 milliondan ziyod odam biznesga jalb qilinadi. Shu maqsadda bu yil kichik biznes loyihalariga jami 120 trillion so'm kredit ajratiladi.

Ilg'or xorijiy tajriba asosida 32 ta yo'nalishda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha yangi yondashuvlar yo'lga qo'yiladi. Misol uchun, 300 ta og'ir mahallada umumiy quvvati 107 megavatt bo'lgan quyosh elektr stansiyalari ishga tushiriladi. Ularga kambag'al oila a'zolari kooperatsiya asosida ishga olinadi.

123 ta tumanda kambag'al aholi 20 ming gektar o'rmon va ko'chatzor barpo etish hamda dorivor o'simliklar yetishtirishga jalb etiladi. Ular ekkan har 100 ta daraxt uchun 375 ming so'm subsidiya to'lanadi.

Turizm salohiyati bor joylarda mehmon uylari va oshxonalar, muayyan pochta bo'limalarida elektron tijorat markazlari ochilib, kambag'al oila vakillari ishga olinadi.

Umuman, joriy yilda 6 ming 472 ta mahallada yangi yondashuvlar asosida loyihalar amalga oshirilib, 210 ming nafar aholi kambag'allikdan chiqariladi.

Chekka hududlardagi, og'ir toifadagi qishloqlarga alohida e'tibor qaratiladi. O'zbekiston mahallalari uyushmasi ularga ishchanlik ruhini olib kirib, boqimandalikni kamaytirishga, kambag'al oilalar mehnatini qo'llab-quvvatlashga mas'ul bo'ladi.

Davlatimiz rahbari 2025-yil ishsizlik va kambag'allikni qisqartirishda hal qiluvchi yil bo'lishini yana bir bor ta'kidlab, bu boradagi chora-tadbirlarni tartibli va manzilli amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga bu vazifalarning bajarilishini qat'iy nazoratga olish topshirildi. Har bir loyiha, har bir chora-tadbir elektron platformaga kiritilib, yaratilgan ish o'rinlari soliq bazasida tekshirilib belgilandi.

Mahalliy hokimlik xodimlari va "mahalla yetiligi" uchun o'quvlar tashkil etish, yaxshi tajribalarni targ'ib qilish muhimligi aytiladi.

O'ZA

## Prezident qarorlari – hayotda va nazoratda



**Aholi hayoti darajasi va sifatini oshirish borasidagi islohotlar natijadorligi bevosita ularni amalga oshirishga qaratilgan hujjatlar va qarorlarni ijro etish bo'yicha intizomning qat'iyligiga bog'liq. O'z navbatida, bu davlat hokimiyatining jamiyat oldidagi eng asosiy vazifalaridan biridir. Buni Prezidentimiz tomonidan ijro intizomi yo'nalishida mustahkam tizim yaratish, tartib o'rnatish, temir intizomni joyiga qo'yish, rahbarlar va xodimlarning dunyoqarashini o'zgartirishni asosiy vazifa sifatida belgilab berilganida ham ko'rish mumkin.**

### Mas'uliyat – rahbarlarda

Davlatimiz rahbari raisligida 2024-yil 28-noyabr kuni o'tkazilgan yig'ilishda vazirlar, hokimlar va tarmoq rahbarlarining mas'uliyatini kuchaytirish, barcha topshiriqlar ijrosini so'zsiz ta'minlash bo'yicha aniq vazifalar berildi.

## TEMIR INTIZOM – IJRO NATIJADORLIGI OMILI



**Har bir rahbar berilgan ko'rsatmalarga asosan, ijro intizomi masalasiga yuqori mas'uliyat bilan yondashgan holda:**

- belgilangan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida, to'liq va sifatlari ta'minlash bo'yicha ishlarni to'g'ri rejalashtirishi;
- topshiriqlarni ijro muddatidan barvaqt

bajarish bo'yicha oldindan zarur chora-tadbirlarni ko'rish;

— yuzaga kelayotgan har bir muammoli masalani birinchi rahbarlar darajasida muhokama qilib, hamkorlik va muloqot asosida hal etishi shartligi ta'kidlandi.


Davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo'jalik

birlashmalari rahbarlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriqlari to'liq va o'z vaqtida bajarilishi, shuningdek, ularning ijro holati to'g'risidagi ma'lumotlar "Ijro.gov.uz" tizimi orqali to'liq, to'g'ri va o'z vaqtida taqdim qilinishi uchun shaxsiy javobgarlik yuklatilgan.

Davomi 3-beta

## Davlat dasturi loyihasi muhokamada

# MILLIY QADRIYATLARGA HAMOHANG HUJJAT



**Hayotda har kimning o'ziga yarasha orzu-maqsadi bor. O'tayotgan har bir kunimiz, vaqtimizni unga yetishish uchun sarflashga intilamiz. Yangi kunimiz oilamiz, mehnat jamoamiz va jamiyat uchun xayrli, foydali ishlarga boy bo'lishini istaymiz, rejalar tuzamiz. Ushbu rejalar yuzasidan do'stlar, yaqinlarimiz bilan maslahatlashamiz.**



Xalqimizda "Maslahatli to'y tarqamas" degan naql bor. Asrlar davomida o'z qadrini yo'qotmagan ushbu hikmat keyingi yillarda davlat boshqaruvida,

amalga oshiriladigan islohotlar rejasida ham keng qo'llanmoqda.

Prezidentimiz davlat siyosatida, islohotlar mazmun-mohiyatida xalq roziligiga, yurt-

doshlarimiz bugun nimani istayotganiga, qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlarida aholi manfaatlari qay darajada o'z ifodasini topayotganiga alohida e'tibor qaratmoqda.

Mamlakatimizda 2021-yildan boshlab iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar loyihasi jamoatchilik muhokamasidan o'tkazib kelinadi. Xalqimizning jamiyat hayotiga daxldor masalalarni kengashish kabi asriy qadriyatining zamonaviy ko'rinishi bo'lgan ushbu tartib jamoatchilik tomonidan ham qo'llab-quvvatlandi. Yurtdoshlarimizda davlat va jamiyat hayotiga oid masalalarga nisbatan daxldorlik hissi, fuqarolik pozitsiyasi oshib bormoqda. Buni O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi loyihasi, davlat dasturlari loyihasi muhokamalari misolida ham ko'rish mumkin.

Davomi 2-beta

## Bugunning gapi

# MAHALLA BANKI RLARI ISH BOSH LADI

**Yil boshini odatdagidan ko'ra qizg'in boshlab oldik. Yangi islohotlar, yangi tashabbuslar kutib o'tirmay, darhol ishga tushirilmoqda. Ayni kunlarda esa yurtimizning barcha hududlarida mahalla bankirlari faoliyati yo'lga qo'yilyapti. Endi har bir mahallaning o'z bankiri bo'ladi va aholining biznes loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashadi.**



Mazkur tashabbus o'tgan yili 16-dekabrda o'tkazilgan yig'ilishda davlatimiz rahbari tomonidan qo'llab-quvvatlangan edi. Shu asosda joriy yilning 1-fevraliga qadar har bir hududda mahalla bankiri shtati ta'sis etilib, mahallalarga biriktirilishi kerak. Bu ishini tuman hokimlari va tijorat banklari birgalikda bajarishi ko'zda tutilgan. Mahalla bankiri shtati tumanlardagi banklar tomonidan ta'sis etiladi. Hokimliklar esa ishlab chiqilgan loyihalarni amalga oshirish uchun joy va infratuzilma bilan ta'minlaydi.

Yurtimizda birinchilardan bo'lib Toshkent viloyatida mahalla bankirlari

ish boshladi. Viloyatdagi tijorat banklari tomonidan 264 ta mahalla bankiri shtati ochilib, barchasi to'ldirilgan. Shtatlar banklarning tuman va shaharlarga biriktirilishi hamda mahallalarning joylashuvidan kelib chiqib taqsimlangan. Gap shundaki, Toshkent viloyatidagi 22 ta shahar va tumanda 3 milliondan ziyod odam yashaydi, mahallalar soni esa 1025 ta. Hududlarning geografik joylashuvi, odam soni va tuman toifasidan kelib chiqib, 3-4 ta mahallaga bitta mahalla bankiri biriktirildi.

Davomi 4-beta

## TEJALGAN SUV – BOQIY HAYOT GAROVI

### Dolzarb mavzu

**Hisob-kitoblarga ko'ra, global iqlim o'zgarishi natijasida so'nggi 50-60 yil davomida Markaziy Osiyoda muzliklar maydoni taxminan 30 foizga qisqargan. 2050-yilgacha Sirdaryo havzasida suv resurslari 5 foizga, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. Uzoq yillar "suv tekin" qabilida ish yuritib, yonimizdan oqqan suvni qadrlamadik. Ammo suvdek oqib ketayotgan vaqt tizginida yillar o'tib, yuqoridagi kabi xavotirli raqamlar oshib bormoqda.**

Shu maqsadda so'nggi yillarda O'zbekistonda suv bilan bog'liq muammolarning oldini olish, resurslarni boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo'jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmogda.

Bugungi kunga kelib, O'zbekiston suv tejoyvchi texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha Markaziy Osiyoda birinchi, MDH davlatlari orasida ikkinchi, Osiyoda to'rtinchi va dunyoda 13-o'rinda e'tirof etilmogda. Buni tizim faoliyatini yanada isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlarning samarali ijrosi natijasi deiysh mumkin.

Prezidentimiz raisligida 2024-yil 7-noyabr kuni qishloq xo'jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo'qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida butun dunyoda kuzatilayotgan ekologik muammolar, tabiiy ofatlar qayd etilib, bizning mintaqamizga suv tanqisligi xavf solayotganini ta'kidlangandi. Davlatimiz rahbari bu muammoning yechimiga to'xtalar ekan, jumladan, mamlakatimizda suv tejoyvchi texnologiyalarni joriy qilish, kanal va ariqlarni betonlashirish, suv boshqaruvini isloh qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan edi.

Davomi 2-beta



## Davlat dasturi loyihasi muhokamada

MILLIY QADRIYATLARGA  
HAMOHANG HUJJATUYG'ONISH  
Renessans allomalari hayoti va faoliyatini  
o'zida mujassam etgan mobil ilova yaratish kerakAzamat PARDAYEV,  
Oliy Majlis Qonunchilik  
palatasi deputati

## Boshlanishi 1-betda

Har bir hujjat aholi vakillari tomonidan bildirilgan taklif va tavsiyalar inobatiga olingan holda qabul qilinmoqda hamda hayotga tatbiq etilmoqda.

Ushbu an'ana bugun ham davom etyapti. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi va uni tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni loyihasi keng jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qilindi.

Dastur loyihasida 5 ta ustuvor yo'nalish bo'yicha 2025-yil uchun 235 ta amaliy chora-tadbiri amalga oshirish, 87 ta normativ-huquqiy hujjati qabul qilish va qator maqsadli ko'rsatkichlarga erishish nazarda tutilmoqda.

Yil nomidan kelib chiqib, loyihada atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yo'nalishidagi vazifalar ustuvor ahamiyat kasb etganini ko'rish mumkin. Xususan, "yashil" iqtisodiyot yo'nalishida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini oshirish, elektr energiyasi uchun "yashil" tariflar joriy etish, energiya hamda suv iste'moli sohasida tejamlilikka erishish, qishloq xo'jaligida suv ta'minotini yaxshilash, aholining toza ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish kabi ko'plab maqsadlar ko'zda tutilgan.

Farmon loyihasiga nazar tashlagan kishi unda milliy qadriyatlarimizga hamohanglikni ko'rish mumkin. Esimizni tanibimizki, otabobalarimizdan ko'chat ekish, atrof-muhit va

jonkuyarlarga ziyon yetkazmaslik, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, suvni iflos qilmaslik, mahalladagi kexsalar va bemorlar holidan xabar olish kabi ezgu qadriyatlarga amal qilish haqida eshitib kelamiz. Farzandlarimizga ham baholi qudrat shulami o'rgatishga harakat qilamiz.

Jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qilingan davlat dasturi loyihasida ham shu qadriyatlar ustuvor bo'lgan ko'plab maqsadlarni ko'rishimiz mumkin. Xususan, dasturning atrof-muhitni asrash yo'nalishida joylarda piyoda va velosipedda sayr qiladigan "Soyali sayr ko'chalari" tarmog'ini yaratish, "Bir million yashil oila" harakati orqali yurish va yugurish, "yashil" transportda harakatlantirish, oziq-ovqat isrofgarchiligini oldini olish, energiya resurslaridan oqilona foydalanishni targ'ib qilish kabilari o'rin olgan. Bunda "yashil fuqaro", "yashil oila", "yashil mahalla" talablari belgilanadi va har biri uchun alohida qo'llab-quvvatlov chorasi ko'zda tutiladi.

Shuningdek, "Yashil tadbirkor" platformasi ishga tushiriladi va bunday tadbirkorlarga shaffof qurilish tizimida afzallik berish, xalqaro bozorga chiqish uchun qo'llab-quvvatlash kabi yordam ko'rsatiladi.

Alohida e'tiborni tortgan yana bir jihat shuki, 200 million tup ko'chat ekish, yashil bog'lar sonini 257 tadan 701 taga, Orolbo'y mintaqasidagi o'rmonlarni 2,1 million gektarga yetkazish, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlari hududida sho'r va suvsizlikka chidamli o'simliklar bog'i tashkil etilishi ko'zda tutilgan.

Bu maqsadlarga, albatta, osonlikcha erishilmaydi. Katta mablag', ischi kuchi va xalqimizning birlamchilik, ulkan shijoati zarur. Yurt o'zimizniki ekan, uning gullab-yashnashi, ravnaqi, eng avvalo, o'zimizning farovonligimiz uchun kerak. Kelajak avlodlar uchun obod yurt va go'zal turmush yaratish mas'uliyati bugun barchamizni birdek



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM  
O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



jonkuyarlarga chorlashi lozim. Davlat bosh ishlohtchiligi asosida rejalashtirilayotgan va amalga oshirilayotgan ishlar ijrosida ham o'z takliflarimiz, hissamiz bilan faol ishtirok etishimiz zarur va shart.

Davlat dasturi loyihasidan o'rin olgan O'zbekiston Respublikasi hududida 3 yil muddatga o'z qabul qilishga moratoriy joriy qilish hamda 14 ta hududda qarovsiz hayvonlar pitomniklarini tashkil etish maqsadlari ham yuqorida aytgan azaliy qadriyatlarimizning bir ko'rinishi, albatta.

Bugun dunyoda iqlim o'zgarishlari, tabiat hodisalari ortishi natijasida turli kasalliklar, suvsizlik, havoning ifloslanishi kabi muammolar paydo bo'lgani insoniyatni jiddiy tashvishga solmoqda. Bu borada ham yurtimizda atmosfera musaffoligini ta'minlash, aholi salomatligini muhofaza qilish yo'nalishida ko'lamli ishlar bajarilayapti.

Birgina chiqindilar orqali yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan yangi loyihalarni tashkil etishga katta e'tibor berilmoqda. Buni chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish borasidagi ishlar misolida ham ko'rish mumkin.

Davlat dasturi loyihasidan o'rin olgan 2026-yildan boshlab ichimliklarning plastik qadoqlarida rangli plastikni ishlatish, 2027-yildan boshlab plastik paketlar ishlab chiqarish, olib kirish va foydalanishni taqiyqlash vazifasi ham e'tibor qaratilishga arziydi.

Xalqimiz farzandlarimizni har taraflama bilimli, ma'nan va jismonan barkamol avlod etib voyaga yetkazishga katta e'tibor qaratib keladi. Bilim olishning afzalliklari haqida qanchadan qancha maqollar, hikmatlar ham mavjud. "Bilagi zo'r bimi yiqar, bilimi zo'r mingni", "Bilim baxt keltirar" kabi maqollar barchamizning shiorimizga aylaniy ulguran.

Yurtodoshlarimiz e'tiboriga havola etilgan davlat dasturi loyihasida ta'lim masalasiga juda katta o'rin berilgan. Aniqlik qilib aytak, dastur aynan ta'lim sohasidagi ishlohtlarga qaratilgan maqsadlar bilan boshlangan.

Demak, jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qilingan davlat dasturi loyihasini milliy qadriyatlarga asoslangan deya ta'riflash mumkin. Endi siz bizga loyiha bilan tafsilatli tanishib, yanada xalqchil va mukammal bo'lishi uchun uni o'z taklif va tavsiyalarimiz bilan qo'llab-quvvatlash vazifasi qolmoqda. O'z yurti va xalqi kelajagi uchun e'tiborsiz bo'lmagan har bir yurtodoshimiz ushbu jarayonda faol ishtirok etishiga ishonaman.

Komila KAROMOVA,  
Respublika Ma'naviyat va  
ma'rifat markazi  
Qashqadaryo viloyati bo'limi  
rahbari, senator

Loyiha bilan tanishish asosida rejalashtirilgan naqadar ulkan, maqsadlarimiz nechog'liq ulug'vor ekanini ko'ramiz. Unda aholining barcha qatlamlari manfaatini himoya qilish, barqaror taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan ko'plab vazifalar o'rin olgani e'tibordir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O'zbekiston ijtimoiy davlat ekanini belgilangan. Bu, albatta, davlat zimmasiga juda katta majburiyat yuklaydi. Davlat dasturi loyihasida ham ijtimoiy sohani rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Hali tug'ilmagan go'dakdan tortib, keksa yoshdagilargacha munosib sharoit yaratishga alohida ahamiyat berilmoqda. 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini oshirish, oltin va chekka hududlardagi maktab o'quvchilari uchun bepul avtobus qatnovini yo'lga qo'yish, oliy ta'lim muassasalari talabalarini yotoqxona bilan ta'minlash yoshlarning ta'lim olish sharoitini yaxshilashga hissa qo'shadi.

Bugun Qarshi shahrida 110 ming talaba tahsil oladi. 2025-yilda 3 ta 1200 o'rinli yotoqxona qurilishi rejalashtirilmoqda. Demak, ular soni 31 taga yetadi hamda shu orqali yoshlar uchun yashash va o'qish sharoiti to'kis bo'ladi.

Stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura hamda maqsadli doktorantura kvotalari oshirilishi iqtidorli va bilimli yigit-qizlarga keng imkoniyat beradi. Dastur loyihasida fanlar bo'yicha fundamental tadqiqotlarni amalga oshirishga e'tibor qaratilayotgani intellektual

muhitni yaxshilab, keng innovatsiya va taraqqiyotga asos bo'ladi.

Dastur loyihasining o'ziga xos jihati mamlakatimizdagi bag'rikenglik, inson qadriyatini ulug'lash tamoyili qaror topayotganidir. Xorijda yashayotgan vatandoshlarni ma'naviy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy birlamchilikni kuchaytirishga katta e'tibor qaratilgan. Buning uchun xorijda hududiy vatandoshlar forumini o'tkazish belgilanayotgan bo'lsa, katta yoshli vatandoshlar uchun O'zbekistonda "Chinor" dasturini tashkil etish va yoshlar uchun mamlakatimizdagi oromgohlarda "Anor" yozgi dam olish dasturi tashkil etilishi o'zaro mehroqibatni mustahkamlaydi.

"Uyg'onish" mobil ilovasini yaratish taklifini o'rta tashlamoqchiman. Bu, shubhasiz, yoshlarni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashga hissa qo'shadi. Mazkur ilova qiziqarli ma'lumotlar, videomateriallar bilan muntazam yangilab borilishi bugun talablariga javob beradi.

Yosh avlodni ma'naviy yuksak ruhda tarbiyalash bolalikdan boshlanadi. Kitobxonlikni ommalashirish, uni ma'naviy ehtiyoj darajasiga ko'tarish uchun kitobga bolalikdan mehr uyg'otish zarur. Bugun aholi orasida kitobxonlik muhiti yanada yaxshilanishiga xalal berayotgan omillardan biri aynan bolalar kitoblari narxining qimmatligidir.



Prezidentimizning "Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi — bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi — ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma'naviyat", degan fikrlariga hamohang ravishda endi aholining zamonaviy bilim, ko'nikma va malakasini oshirishga qaratilgan "Ma'rifat ulashib" loyihasini amalga oshirish, milliy qadriyatlar, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar targ'ibotiga doir milliy kontentlarni, bolalar uchun xavfsiz internet muhitini yaratish, internetdan xavfsiz foydalanish borasidagi ijtimoiy roliklarning OAVda muntazam e'lon qilib borilishini yo'lga qo'yish belgilanyapti.

Fursatdan foydalanib, Birinchi va Ikkinchi Renessans allomalari hayoti va ilmiy faoliyati, ijodiy asarlarini o'zida mujassam etgan

Shunga ko'ra, xususiy nashriyotlar bilan bemalol raqobatga kirisha oladigan, davlat ishtirokidagi bolalar nashriyotlari ochilishi kerak. Masalan, Qashqadaryo viloyatida bolalar nashriyoti yo'q. O'z-o'zidan poytaxt yoki boshqa viloyatlardan keltirilayotgan kitoblar narxi qimmatlashib boraveradi. Viloyatimizda bolalar nashriyoti faoliyat yuritisa, kitoblar narxi arzonlashishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, davlat dasturi loyihasi aholining barcha qatlamlari manfaatini himoya etadi. Shuning uchun ham mazkur loyiha qizg'in qo'llab-quvvatlanmoqda. Sohibqiron Amir Temur aytgandek, eng muhim ishlarimiz kengash, tadbir va mas'uliyat orqali amalga oshirishda hikmat ko'p. Bugun ham xalq bilan maslahatlashilgan holda katta rejalarni belgilanyapti. Bu ulkan marallarni esa hamma havas qiladigan hamjihatligimiz, fidoyilik, sadoqatimiz bilan zabt etamiz.

## TEJALGAN SUV — BOQIY HAYOT GAROVI

## Boshlanishi 1-betda

Suvdan foydalanish koeffitsiyentini yanada oshirish uchun uning irrigatsiya tarmoqlaridagi yo'qotiladigan miqdorini kamaytirish kerak bo'ladi. Buning uchun sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, irrigatsiya-melioratsiya obyektlarini rekonstruksiya qilish va ta'mirlash-tiklash zarur. Avvallari respublika miqyosidagi sug'orish tarmoqlarining faqat 23 foizi beton qoplamali edi. Xususan, kanallarning foydali ish koeffitsiyentini pastligi (35-40 yildan beri ta'mirlab bo'lib qolgan) sabab ichki tarmoqlarda suv ko'p yo'qotilgan.

— Qishloq xo'jaligi ekin maydonlariga boruvchi kanal va ariqlarning betonlashmagani katta yo'qotish, albatta,

— deydi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan irrigator Zohid O'rolov. — Shundan kelib chiqib, suv sarfini tejashdagi ushbu eng muhim tadbir orqali 35 foiz suv yo'qotilishining oldini olish mumkin. Shuningdek, bu tadbirlar dehqon dalasiga suv yetib borish vaqtini tejaydi, suvchi-miroblarning mehnati yangillanadi.

Zarafshon daryosi viloyatning yagona suv manbai hisoblanadi va 340 ming gektardan ortiq sug'oriladigan yer maydonlari aynan shu daryo suviga bevosita bog'liq. Daryodan keladigan suv sarfining ko'p yillik ko'rsatkichlarini tahlil qilganimizda suv miqdori har yili 7-10 foizga kamayib borayotgani kuzatildi. Shu jihatdan ham mavjud resurslardan oqilona foydalanish, suvning har tomchisini tejash barchamizning



eng asosiy vazifamiz ekanini anglashimiz zarur. Prezidentimiz e'tibor qaratayotgan dolzarb vazifa — kanal va ariqlar betonlashirilishi natijasida esa suvdan foydalanish koeffitsiyentini 90-95 foizgacha oshib, yo'qotishlarning oldi olinadi.

2024-yilda Samarqand viloyatidagi 7 ta muhim tumanlararo kanallarning 26,2 kilometri rekonstruksiya qilindi. "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari hisobidagi 420 kilometr sug'orish tarmoqlari, klaster va fermer xo'jaliklari hisobidagi 2100 kilometr xo'jalik ichki sug'orish tarmoqlari betonlashirildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda eng ko'p qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirib beruvchi Samarqand viloyatidagi sug'oriladigan yer maydonining 68,155 ming gektari nasos agregatlari yuqori 9 dona

Ma'lumki, sug'orish tizimlarining nasos stansiyalari energiya iste'moli jihatidan katta bo'lgan obyektlardan biri hisoblanib, nasos agregatlarining energiya iste'moli tejamlilikni oshirish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

— Viloyatda 94 ta nasos stansiyasi hamda 453 ta sug'orish, 46 ta meliorativ tik quduqlar bo'lib, 2024-yilda ularni ishlatish uchun davlat tomonidan 163,7 million kilovatt-soat elektr energiyasi limiti ajratilgandi, — deydi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Shokir Rahmonov. — Nasos stansiyalari ekspluatatsiyasi davomida elektr energiyasini iqtisod qilish, nasos agregatlari ishonchli ishlashini ta'minlash maqsadida samaradorligi yuqori 9 dona

nasos uskunasi, 17 dona elektr dvigateli va 15 dona reaktiv energiyani kompensatsiyalovchi kondensator qurilmasi o'rnatilgan hisobiga 780 ming kilovatt-soat elektr energiyasini iqtisod qilishga erishdik. Joriy yilda esa shunday tadbirlar tufayli 1 million 300 ming kilovatt-soat elektr energiyasi tejash ko'zda tutilmoqda. Yana bir amaliyot: viloyatda suv nasos stansiyalarini bosqichma-bosqich muqobil energiya bilan ishlash tizimiga o'tkazish bo'yicha tashkiliy ishlar boshlangan.

Shuni ta'kidlash kerakki, davlat bilan xususiy biznes hamkorligi mexanizmi ko'pgina afzalliklarga ega bo'lib, har qanday davlat uchun strategik ahamiyatli loyihalarni samarali amalga oshirishning kuchli omili sanaladi. Suv xo'jaligi sohasida ham davlat-xususiy sheriklik va axtorsingni joriy etish, alohida suv xo'jaligi obyektlarini fermer, klaster va boshqa tashkilotlarga foydalanish uchun berish, tejalgan mablag'larni suv xo'jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish hamda xodimlar mehnatiga haq to'lash va rag'batlantirishga yo'naltirish bilan bog'liq chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu yo'nalishda Samarqand viloyatining Narpat tumanidagi "Oqtosh-1", "Oqtosh-2" va "Turkiston" nasos stansiyalari, Bulung'ur tumanidagi "G'alaba" nasos stansiyasi davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat olib bormoqda.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 5-yanvardagi "Quy bo'g'inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida suv tejovchi texnologiyalarni joriy



etish bo'yicha bir qator vazifalar belgilandi. Uning ijrosi doirasida Samarqand viloyatida 2024-yilda 10,1 ming gektar maydonda tomchilab, 3,2 ming gektar maydonda yomg'irlab, 3,2 gektar maydonda diskret, 8,3 ming gektar maydonda egiluvchan quvvur orqali sug'orish tizimi va 23,1 ming gektar maydonni lazer uskunasi orqali tekislash ishlari amalga oshirildi. Bu orqali o'rtacha 61 million kub metr suv tejaldi va uning hisobiga 18 ming gektar maydondagi takroriy ekinlarni suv bilan ta'minlash imkoniyati yaratildi.

Albatta, bu kabi chora-tadbirlarga hamjihatlikda bosh qo'shsak, natija yanada samarali bo'ladi. Bugun atrofimizda ro'y berayotgan suv bilan bog'liq ekologik muammolar barchamiz uchun ogohlilik qo'ng'irog'i bo'lishi lozim. Har birmiz shaxsiy daxldorligimizni chuqur anglab, individual yondashsak, shu bugun, shu soniyadanoq suvni tejash va isrof qilmaslik tamoyili kundalik mezonimizga aylansa, kelgusida ehtimoli bo'lgan katta muammolarning oldini olgan bo'lamiz.

Shuhrat NORMURODOV,  
jurnalist



Prezident qarorlari – hayotda va nazoratda

# TEMIR INTIZOM – IJRO NATIJADORLIGI OMILI



Akbar TOSHQULOV,  
adliya vaziri

Boshlanishi 1-betda

## Ijro zanjiri uzilmasligi zarur

Prezidentimizning 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida aynan mana shu yo‘nalishda ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Bugun davlatimiz rahbarining topshiriqlari to‘liq va o‘z vaqtida ijro etilishi bo‘yicha ushbu hujjatlar asosida tashkil qilingan yagona va uzluksiz “texnologik zanjir” tizimi samarali ishlashi katta ahamiyat kasb etadi.

Mazkur hujjatlar muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriqlari to‘liq va o‘z vaqtida ijro etilishi yuzasidan nazorat yuritish bilan bog‘liq vazifalar Adliya vazirligiga yuklatilgan.

Birlamchi bo‘g‘in sifatida Adliya vazirligi tomonidan bu borada Prezident topshiriqlari ijrosini “Ijro.gov.uz” tizimi hamda joyiga chiqqan holda monitoring qilish, o‘rganishlar o‘tkazish hamda ushbu jarayonda aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha vazirlik va idoralar oldiga tegishli masalalarni qo‘yish, ijrochilarga huquqiy-uslubiy ko‘maklashish bilan bog‘liq vazifalar amalga oshirilmoqda.

O‘z navbatida, vazirlikning Prezident hujjatlari va topshiriqlari bo‘yicha nazorat mexanizmi birlamchi bo‘g‘iniga aylinishi tizimdagi barcha rahbar va mutaxassislarining kasbiy darajasi va ishchanlik malakasini yanada oshirishni hamda yuksak shaxsiy mas‘uliyatni talab etadi.

Vazirlar Mahkamasida respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo‘jalik birlashmalarida topshiriqlarning ijro holati natijadorligi kunlik tahlil etilib, rahbar o‘rinbosarlari va mas‘ul ijrochilarning hamda Vazirlar Mahkamasidan birlashtirilgan xodimlar ishtirokida tanqidiy muhokama qilinmoqda.

## Nazorat mexanizmi qanday ishlaydi?

Har qanday hujjatning ijrosini ta‘minlashda amaliy mexanizmlar, shakl va usullardan samarali foydalanish zarur. Bu borada hujjatlar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha yagona va uzluksiz “texnologik zanjir”ning quyidagi uchta ustuvor bo‘g‘iniga alohida e‘tibor qaratish kerak:

birinchidan, hujjatda uning ijrosini tashkil etish uchun mas‘ul bo‘lgan davlat organi va tashkiloti oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli va maqbul yo‘l bilan ijro qilish mexanizmlari aniq belgilab berilishi lozim;

ikkinchidan, hujjatda belgilangan vazifa va topshiriqlarning o‘z vaqtida va natijador ijrosini ta‘minlash uchun eng samarali yo‘l tanlanishi zarur;

uchinchidan, hujjat ijrosini amalga oshirish uchun eng kam mablag‘, resurs va energiya sarflanishi zarurligi inobatga olinishi lozim.

Umuman olganda, ushbu jihatlarning har birini siyosat va islohotlarni amaliyotga tatbiq etishda ko‘plab davlatlar uchun juda dolzarb masala. Zero, mazkur jarayonga ko‘plab omillar ta‘sir o‘tkazadi.

Amaldagi tizimga ko‘ra, topshiriqlar ijrosini tashkil etish quyidagi 7 bosqichda amalga oshirilmoqda:

**birinchi bosqichda** hujjat va elektron nusxalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tomonidan “Ijro.gov.uz” tizimi orqali Adliya vazirligiga yuboriladi;

**ikkinchi bosqichda** Adliya vazirligi kelib tushgan hujjatlar yuzasidan “Ijro.gov.uz” tizimida topshiriq muddati va mas‘ullarni belgilaydi;

**uchinchi bosqichda** mas‘ul ijrochilar ushbu topshiriqlar o‘z vaqtida, sifatli, samarali hamda natijadorlik bilan ijro etilishini ta‘minlash maqsadida har bir topshiriq bo‘yicha aniq mexanizmlarni belgilagan holda “yo‘l xaritasi” tayyorlaydi, tasdiqlaydi va ijroga qaratadi;

**to‘rtinchi bosqichda** Adliya vazirligi topshiriqlar ijrosi bo‘yicha mas‘ul ijrochilar tomonidan “Ijro.gov.uz” tizimiga kiritilgan ma‘lumotlar to‘liqligi va haqqoniyligini tekshiradi, ularni tasdiqlaydi yoki mas‘ul ijrochiga qayta ishlashga jo‘natadi. Shuningdek, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijro holati to‘g‘risidagi umumlashtirilgan ma‘lumotlarni har oyda Vazirlar Mahkamasiga kiritib boradi;

**beshinchi bosqichda** Vazirlar Mahkamasida “Ijro.gov.uz” tizimida respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo‘jalik birlashmalari tomonidan kiritilgan hamda Adliya vazirligi tomonidan tekshirilgan ma‘lumotlar to‘liqligi va haqqoniyligini tekshiradi. Ularni tasdiqlaydi yoki mas‘ul ijrochiga qayta ishlashga jo‘natadi. Shuningdek, har oyda rayosat majlislarida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi natijadorligini tanqidiy ko‘rib chiqadi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga tegishli takliflar bilan birgalikda umumlashtirilgan ma‘lumot kiritadi;

**oltinchi bosqichda** Hisob palatasi “Ijro.gov.uz” tizimiga mas‘ul ijrochilar tomonidan kiritilib, Adliya vazirligi va hukumat tomonidan tekshirilgan ma‘lumotlar to‘liqligi va haqqoniyligini tekshiradi. Ularni nazoratdan yechadi yoki mas‘ul ijrochiga qayta ishlashga jo‘natadi. Shuningdek, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijro holati bo‘yicha har chorakda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritib boradi;

**yettinchi bosqichda** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini nazorat qiluvchi tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda ularning ijro muddatini uzaytirish yoki uzaytirishni rad etish to‘g‘risida yakuniy qaror qabul qiladi.

Hujjatlar ijrochilarga qanchalik tez yetib borsa, ularning ijrosi ham o‘z vaqtida tashkil etiladi. Eng muhimi, qimmatli vaqt resursi hujjat aylanishiga emas, balki topshiriqni sifatli ado etishga sarflanadi.

Shunga ko‘ra, davlat organlari va tashkilotlarida hujjatlar kelib tushgandan uch kun muddatda (agar hujjatning o‘zida boshqa muddat ko‘rsatilmagan bo‘lsa) ular bo‘yicha aniq ijrochilar, muddatlar va bajarish mexanizmi ko‘rsatilgan topshiriqlarni tayyorlash, uni imzolash hamda ijrochilarga yetkazish choralari ko‘rilishi lozim.



Hozir qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarni ro‘yxatga olishdan boshlab, uning ijro mexanizmlarini belgilash va ijroga qaratish, ijrosini ta‘minlab, axborot kiritishga qadar bo‘lgan jarayon, jumladan, ijro holati yuzasidan munosabat (ta‘sir choralari, ko‘rsatma va boshqalar), ya‘ni ular bilan bog‘liq har qanday jarayon to‘liq elektron platforma orqali avtomatlashtirilgan holda amalga oshirilmoqda.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali



Hududlarda ishini tashkil etishda agar hujjatlarida hokimliklar, davlat organlari va tashkilotlari, xo‘jalik birlashmalarining hududiy bo‘linmalari to‘g‘ridan to‘g‘ri mas‘ul ijrochi etib belgilangan bo‘lsa, ularning nazorati hududiy miqyosda ham gorizontol amalga oshirilmoqda.

Xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hamda Toshkent shahri hokimliklari, tuman va shahar hokimliklari, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlari, xo‘jalik birlashmalarining hududiy bo‘linmalarida topshiriqlarning ijro qilinishi doimiy ravishda monitoring va tahlil qilib borilmoqda.

Hududiy adliya organlari hujjatlar ijro natijalarining to‘liqligi va haqqoniyligini, jumladan, amaliy natijalarni ko‘zdan kechirish maqsadida joylarga chiqish orqali o‘rganmoqda. Ijro muddati yaqinlashgan topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida ta‘minlash bo‘yicha zarur hollarda hududda joylashgan idoralarga huquqiy-uslubiy ko‘maklashish choralari ko‘rmoqda.

Eng muhim jihatlardan biri shuki, muayyan sohadagi siyosatni amalga oshirish bo‘yicha topshiriqlarning barcha ijrochilari nazorat qilinmoqda. Har bir topshiriq ijrosini ta‘minlash uchun davlatimiz rahbarining hujjatlar orqali taqdim etilgan barcha imkoniyatlar ishga solinganiga kompleks baho berilmoqda. Bu tizim topshiriqdan ko‘zlangan yakuniy maqsadga erishilganini ham bevosita nazorat qilmoqda.

2024-yilda vazirlik va idoralarning 656 nafar rahbar-xodimi stajirovka o‘tadi, 355 xodimi “Ijro.gov.uz” tizimida ishlash hamda topshiriqlar ijrosi monitoringi va hisobdorligini tashkil qilish bo‘yicha malaka oshirdi. 40 ta tashkilotda sayyor seminar tashkil qilinib, ijro jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar muhokama qilindi va tegishli tavsiyalar berildi.

## Samaradorlikka erishilmoqda

Davlatimiz rahbarining har bir topshiriq‘i zamirida aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta‘minlash, xalqimizni rozi qilishdek ezgu maqsadlar mujassam.

2024-yilda O‘zbekiston Respublikasining bunday maqsadlarni qamrab olgan 500 dan ortiq hujjati qabul qilindi.

Birgina “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi 5 ta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha 100 ta maqsad, 420 ta banddan iborat bo‘lib, 312 ta amaliy tadbir rejasini bajarish hamda 108 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Davlat dasturidagi ayrim topshiriqlarning natijadorligiga to‘xtalib o‘tsak. Masalan, davlat xizmatlarini raqamlashtirish ko‘lamini kengaytirish orqali aholi uchun “Servis davlat”

individual dastur ishlab chiqilib, ijtimoiy yordam ko‘rsatildi. Xususan, 976,9 ming fuqaro ishga joylashtirildi, 125,9 mingi kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitildi, 227,4 ming kishiga imtiyozli kredit, 31,8 mingga subsidiya ajratildi, 44,7 mingining o‘ly ta‘lim o‘quv-shartnoma puli qoplandi, 14,2 mingga dehqonchilik uchun ijara yer maydoni ajratib berildi. Natijada mamlakatda kambag‘allik darajasi yil boshiga nisbatan kamayishiga erishildi.

Mana shunday kompleks natijadorlikka erishish ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha



joriy qilingan mexanizmlarning pirovard maqsadidir.

## Ijrochilar ishni qanday tashkil etishi kerak?

Shaxsiy mas‘uliyat va temir intizom ijro natijadorligi kafolatidir.

Davlat organlari va tashkilotlari hujjatlar ijro holati to‘g‘risida ma‘lumotlarning o‘z vaqtida taqdim etilishini ta‘minlash shart. Topshiriqlar ijrosi samarali amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilayotgan obyekktiv, subyektiv sabablar, muammolar aniqlansa, ularni bartaraf etish bo‘yicha tezkor takliflar ishlab chiqilib, yuqori turuvchi idoraga axborot kiritilishi lozim. Ya‘ni har bitta holatga nisbatan tezkor munosabat bildirish, topshiriq ijrosini yakuniga yetkazmaslik xavfi kelib chiqishiga favqulodda holat sifatida qaralishi kerak.

Shu bilan birga, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

**birinchidan**, topshiriqlar ijrosini tashkil etish hamda amalga oshirish bo‘yicha ishlarni bajarishda davlatimiz rahbarining ijro intizomini mustahkamlashga qaratilgan farmoni va qarori bilan belgilangan tartiblar qat‘iy amal qilish;

**ikkinchidan**, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash hamda topshiriqlarning ijro muddatidan oldin barvaqt bajarilishi yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rilishini ta‘minlash;

**uchinchidan**, rahbarlar tomonidan ijro intizomi holatini har hafta shaxsan muhokama qilib borish;

**to‘rtinchidan**, topshiriqlarni to‘liq bajarmagan, kechiktirib bajargan yoki umuman ijrosini ta‘minlamagan rahbar va xodimlarga

nisbatan qat‘iy intizomiy javobgarlik masalalarini ko‘rib chiqish;

**beshinchidan**, vazirliklar, idora va mahalliy hokimliklar tomonidan o‘zaro hamda nazorat qiltuvchi organlar bilan jonli muloqot va samarali hamkorlikni kuchaytirish.

## Qanday ishlar qilinmoqda?

Adliya vazirligida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari ijrosini nazorat qilish bo‘yicha alohida boshqarma faoliyat yuritadi. Topshiriqlar ijro natijalarini kelishish yoki qaytarishda har bir topshiriq ijro etilishi bo‘yicha ma‘lumotlarga xolis baho berish maqsadida tegishli mezonlar belgilab berilgan.

Bunda topshiriq ijrosiga oid ma‘lumotlar qonuniylik, dolzarblik, to‘liqlik, haqqoniylik, mas‘uliyatlik kabi mezonlarga javob berishi kerak.

Vazirlik tomonidan topshiriqlar ijrosi bevosita joyiga chiqqan holda, manzilli va tematik o‘rganishlar vositasida ham nazorat qilib borilmoqda.

Manzilli va tematik o‘rganishlar dasturiga muvofiq 8 ta, alohida topshiriqlar asosida 38 ta idorada o‘rganish o‘tkazildi, 5800 dan ortiq topshiriq ijrosi hududiy adliya organlari tomonidan joyiga chiqqan holda monitoring qilindi.

Adliya organlari tomonidan topshiriqlar ijrosini ta‘minlashda ijrochilarga doimiy ravishda huquqiy-uslubiy ko‘maklashilmoqda. Ijro intizomi buzilishi holatlarining oldini olish maqsadida aniq ta‘sir choralari qo‘llanib, topshiriqlarni bajaritirish choralari ko‘rib borilmoqda.

O‘z navbatida, o‘rganishlarda aniqlangan, ijrosini tashkil etishda muammolar yuzaga kelgan topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida ta‘minlashda ijrochi tashkilotlar bilan muntazam jonli muloqot o‘tkazilayapti hamda tegishli tavsiya va ko‘rsatmalar berilmoqda.

Shu bilan birga, 2024-yilda vazirlik va idoralarning 656 nafar rahbar-xodimi stajirovka o‘tadi, 355 xodimi “Ijro.gov.uz” tizimida ishlash hamda topshiriqlar ijrosi monitoringi va hisobdorligini tashkil qilish bo‘yicha malaka oshirdi. 40 ta tashkilotda sayyor seminar tashkil qilinib, ijro jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar muhokama qilindi va tegishli tavsiyalar berildi.

“Alohida nazorat” hamda “Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda” rukni ostida 28 ta ko‘rsatuv tayyorlanib, telekanallar orqali efriga uzatildi.

## Ijro natijadorligi baholab boriladi

Shu bilan birga, endi davlat organlari va tashkilotlari, jumladan, mas‘ul rahbarlarning ijro intizomi bo‘yicha faoliyatini tegishli ko‘rsatkichlarga muvofiq baholab boriladi.

Baholash davlat organlari va tashkilotlari tomonidan davlatimiz rahbarining topshiriqlari o‘z vaqtida, sifatli, samarali hamda natijadorlik bilan ijro etilgani, ma‘lumotlarning to‘liqligi va haqqoniyligi, ko‘zlangan maqsadlarga, ya‘ni ko‘rsatkichlarga erishilgani kabi ustuvor indikatorlar asosida amalga oshiriladi.

Bunda qat‘iy talab, temir intizom va ijroni o‘z vaqtida, sifatli tashkil etmagan rahbarlarga nisbatan tegishli choralari ko‘rishni nazarda tutuvchi raqamlashtirilgan ijro tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Bu amaliyot ham topshiriqlar ijro holatini yaxshilashda samarasini ko‘rsatadi hamda mas‘ul rahbarlarning bu boradagi mas‘uliyati va shaxsiy javobgarligini yanada oshirishga xizmat qiladi deb o‘ylaymiz.

## Xulosa

Tajribadan ma‘lum: muayyan soha yoki tarmoqda natijadorlikka, samaraga erishish negizida ishga munosabat, qat‘iy intizom, yuksak mas‘uliyat kabi sifatlar yotadi. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining topshiriqlari ijrosini ta‘minlash barcha darajadagi davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining eng mas‘uliyatli vazifalaridan biri bo‘lishi shart.

Zero, mas‘uliyatsiz rahbarlar, boshqaruvning o‘rta va quyi bo‘g‘inlari mutaxassislariga nisbatan liberal munosabat ijro intizomini samarasiz darajada ekanidan dalolat beradigan holatlar sifatida namoyon bo‘ladi.





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz

## Bugunning gapi

Boshlanishi 1-betda

— Mahalla bankiri shtatiga asosan, ko'p yillik ish tajribasiga ega, aholi va tadbirkorlarga biznes yuritishda yordam bera oladigan mutaxassislar tanlab olindi, — deydi Markaziy bankning Toshkent viloyati bosh boshqarmasi bo'lim boshlig'i Erali Abdullayev. — Ular ko'proq bank sahosi xodimlaridan iborat. O'z nomi bilan mahalla bankiri deyilyapti va shu tizim xodimlari kredit olish, mablag'ni to'g'ri yo'naltirish kabi iqtisodiy masalalarni yaxshiroq tushunadi. Mahalla bankiri shtatlarini ta'sis etish va tegishli tartibda oylik maosh to'lash aynan tijorat banklari zimmasiga yuklatilgani boisi ham shunda. Bu masalada Toshkent viloyatidagi mahallalar bilan 9 ta davlat banki va filiallari ishlayapti. Yangi tizim doirasida hokimliklar va banklar o'zaro hamkorlikda mahalla darajasida ishlashi kerak. Joriy yilda Toshkent viloyatida 350 mingdan ziyod kishini banklar orqali band qilish rejalashtirilgan. Shu maqsadda 22 ta tuman va shahar hokimliklari hamda banklar o'rtasida aholi bandligini ta'minlash, daromadini oshirish bo'yicha hamkorlik shartnomalari imzolandi. Jarayonning dastlabki kunlaridanoq hokimlik vakillari ishtirokida tadbirkorlar bilan



uchrashuv o'tkazib, ularning faoliyatiga to'siq bo'layotgan muammolar yechimini izlash, aholini doimiy ish bilan ta'minlash choralarni ko'rishga kirishganmiz. Aholi bilan xonadonbay ishlashda esa mahalla bankirlari asosiy yordamchi bo'lib xizmat qiladi.

xonadonningizga kirib kelib, taklif beradi. Chunki mahalla bankiri o'ziga birlashtirilgan mahalladagi har bir xonadon bilan alohida ishlaydi. Qolaversa, u mahalladagi tadbirkorlik imkoniyatini o'rganadi, aholi va kichik biznes vakillari bilan muloqot qilib, ularning g'oyasini loyihaga aylantirish orqali

## Tartib qanday?

Hozir ko'pchilik bir vaqtlar bankka borish desa yurak hovuchlab turgani, biror xizmatidan foydalanish uchun qatnayverib sarson bo'lgani, kredit olish-ku ming azobga aylanganini esolmasa kerak. Chunki tizim ancha isloh qilinib, xizmatlar raqamlashgach, odamlarning ularidan foydalanishi ham qulaylashdi. Tijorat banklari chin ma'noda odamlar uchun xizmat qila boshladi. Ularning endi mahallalargacha kirib borayotgani ham kichik voqea emas.

Tasavvur qiling, biror loyihani amalga oshirish uchun kredit olmoqchi bo'lsangiz, bankka borishingizga zarurat yo'q, mahalla bankiriga murojaat qilishning o'zi yetarli. Hatto loyiha haqida o'ylamasangiz ham ular



Ayni paytda Toshkent viloyatida kambag'allik darajasi 7,2 foizni tashkil etyapti. Bu o'tgan yili 16 mingdan ziyod oilaning yashash sharoiti yaxshilanib, kambag'allikdan chiqarilishi hisobiga kambag'allik darajasi 3 foiz kamayganidan qolgan ko'rsatkich. Joriy yilda ushbu ko'rsatkichni 4 foizga tushirish maqsad qilingan.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



yangi ish o'rinlari olish chorasini ko'radi. Odamlarga kredit olish, qaytarish, biznesini yo'lga qo'yish, mahsulotini sotishni o'rgatadi va ko'maklashadi.

Bu vazifalarning barchasi birgina mahalla bankiri zimmasida emas. Unga ko'maklashadigan "yordamchi agent" ham bo'ladi. U mahalladagi har bir xonadonni yaxshi biladigan, aholi orasida bank xizmatlarini ommalashtirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish, aholi va tadbirkorlik

subyektlarini bank xizmatlariga qiziqitirish orqali tadbirkorlik faoliyatini boshlash va kengaytirish bo'yicha mahalla bankiriga ko'maklashuvchi jismoniy shaxsdir.

Ayni paytda barcha hududlarda "yordamchi agent"lar tanlab olinyapti. Mutasaddilarning aytishicha, Toshkent viloyatidagi 1025 ta mahallaning har birida shunday yordamchi bo'ladi. U ham tegishli tijorat banklari bilan shartnoma asosida faoliyat yuritadi.

## MAHALLA BANKIRLARI

## ISH BOSHGLADI



## Maqsad aniq qo'yilgan

Toshkent viloyati Zangiota tumanining Bog'zor, Tokzor va Chorbog' mahallalariga birlashtirilgan mahalla bankiri Shavkat Suvonov ishini hududlarni o'rganib, belgilangan ko'rsatkichlar bo'yicha kambag'al oilalar ro'yxatini shakllantirishdan boshladi. O'zi 10 yildan ziyod vaqt davomida Zangiota tumanidagi tijorat banklarida faoliyat yuritgan. Mutaxassis "Turonbank" ATB Zangiota tumani filiali tomonidan bildirilgan taklifni rad etmadi va shu yerda mahalla bankiri bo'lim boshlig'i lavozimida ish boshladi. Unga oldingi ishidan kam bo'lmagan miqdorda oylik maosh tayinlangan.

— Bankimizga Zangiota tumanidagi 36 ta mahalla birlashtirilgan. Ishni 12 ta mahalla bankiri va 36 ta "yordamchi agent" shtatini o'ldirishdan boshladik, — deydi Sh.Suvonov. — Har birimiz o'zimiz mas'ul bo'lgan mahallani aylanib, xonadonlarni bittalab o'rganyapmiz. Odamlarning ehtiyoji, talabi, imkoniyatlarini aniqlashtirib

olyapmiz. Shu asosda ishlar tashkil etiladi. Chunki oldimizda ish o'rinlari ochib, aholi bandligini ta'minlash orqali oilalarni kambag'allikdan chiqarish vazifasi turibdi. Dastlab har chorakda har bir mahalladan 10 tadan xonadon tanlab olinib, o'sha oilaning yillik daromadini o'rtacha 60-70 million so'mga yetkazish rejasini tuzdik.

Ayni paytda Toshkent viloyatida kambag'allik darajasi 7,2 foizni tashkil etyapti. Bu o'tgan yili 16 mingdan ziyod oilaning yashash sharoiti yaxshilanib, kambag'allikdan chiqarilishi hisobiga kambag'allik darajasi 3 foiz kamayganidan qolgan ko'rsatkich. Joriy yilda ushbu ko'rsatkichni 4 foizga tushirish maqsad qilingan.

Mamlakatimizning har bir burchida ana shunday maqsadlarga yo'naltirilgan ishlar bajarilayapti. Loyihalarning moliyaviy manbalari ham yaratib berilmoqda. Xususan, joriy yil avvalidanoq davlatimiz rahbari topshirig'i bilan yurtimizdagi tijorat banklariga "Mahalla loyihasi" dasturi doirasida 1 milliard dollarlik kredit ajratildi. Qolaversa, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha banklar tomonidan 300 million so'm miqdorida shartsiz kredit berish boshlanadi.

Bu madaniyatni ta'minlash va tartibli yo'naltirish ham muhim. Aholiga kredit olishdan oldin undan samarali foydalanish yo'llarini o'rganish, aniq loyihalari ishlab chiqishga ko'maklashish zarur. Bu borada mahalla bankirlari yaqin ko'makchiga aylanishi ko'zda tutilgan. Mazkur tizim aholini samarali qo'llab-quvvatlash va mahallalarda iqtisodiy faollarni oshirishning yangi bosqichini boshlab beradi.

Iroda TOSHMATOVA,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

## DUNYONING 22 DAVLATIGA TO'G'RIDAN TO'G'RI EKSPORT

## Tahlil


Joriy yilda Farg'ona viloyati iqtisodiyot tarmoqlariga 3,7 milliard dollar to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya jalb etiladi. Bu o'tgan yilga nisbatan 1,2 barobar ko'p. Bundan 7-8 yil avval viloyatda xorijiy investitsiyalarni jalb etish, eksport salohiyatini oshirish borasidagi marra bor-yo'g'i 500 ming dollarni tashkil etgan. Bugunga kelib bu miqdor hajmi milliardlarga yetdi. O'tgan yilning o'zida umumiy qiymati 1,8 milliard dollar to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya o'zlashtirilib, 35 ta yirik ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi.

Viloyatda sanoat, xizmat ko'rsatish, qurilish va qishloq xo'jaligi sohaslarida 1182 ta loyiha ishga tushdi, 36 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi. Bunda ip-kalava, tikuv-trikotaj, kimyo, DSP, MDF, plitalar, oyna va undan yasalgan buyumlar, elektrotexnika, chamm, farmatsevtika tarmoqlari drayver sohaga aylandi.

O'tgan yil davomida mahsulotlar eksport geografiyasi 22 ta davlatga kengayib, umumiy qiymati bir milliard dollardan oshdi. Ular qatorida O'zbekiston bozori uchun yangi imkoniyat eshiklarini ochgan Misr, JAR, Marokash, Peru, Kosta-Rika, Kolumbiya, Kanada, Angliya, Serbiya, Slovakiya, Argentina, Jordaniya, Fransiya, Kuvayt singari mamlakatlarga bilan yo'lga qo'yilgan hamkorlik ko'lamini kundan kunga kengayib bormoqda. Masalan, mahsulotlar eksporti Italiya, Yaponiya, Ispaniya va Saudiyaga o'rt barobar, BAA, Tunis va Turkiyaga uch marta ko'paydi.

Bu bejiz emas. So'nggi yillarda O'zbekistondagi iqtisodiy o'zgarishlar, ayniqsa, liberallashayotgan iqtisodiyot xorijiy investorlarga berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar tadbirkorlarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Bu jarayon O'zbekiston Respublikasini Yaqin Sharq, O'rta Osiyo, Yevropa va qolgan hududlar bilan bog'lovchi ko'priklarga zamin yaratadi.

— Viloyatimiz xalqaro maydonda o'z o'rnini topib, investitsiyaviy jozibadorligi oshib borayotgan dunyoning eng nufuzli "S&P Global Rating" (AQSH) xalqaro reyting agentligi tomonidan tahlil qilinib, mustahkam



moliyaviy indikatorlari va yuqori iqtisodiy salohiyati uchun "B+", ya'ni "barqaror" darajasidagi kredit reytingiga ega deb topildi, — deydi Farg'ona viloyati hokimining o'rinbosari Nuriddin Mamajonov. — "B+" reyting ko'rsatkichi dunyoda iqtisodiy holati barqaror va moliyaviy jihatdan qarzdorlik bo'lmagan hamda sog'lom investitsion muhitga ega hududlarga berilib, xalqaro doiradagi holati ijobiy pog'onada ekanini bildiradi. Hisobotda Farg'ona viloyati byudjetining o'sish ko'rsatkichlari

VILOYATDAGI TADBIRKORLARNI SANOAT VA QISHLOQ XO'JALIGI RIVOJLANGAN DAVLATLARGA XIZMAT SAFARLARIGA YUBORISH, TAJRIBA OSHIRISH ORQALI HAMKORLARNI JALB QILISH DOIRASIDA IMZOLANGAN HUUJATLAR BO'YICHA ISHLAB CHIQLIGAN "YO'L XARITASI"GA KO'RA, QIYMATI 5,2 MILLIARD DOLLAR BO'LGAN 158 TA LOYIHANI AMALGA OSHIRISH BORASIDA ISH OLIB BORILYAPTI.

hamda tijoriy qarzdorlik mavjud emasligi viloyatning likvidlik ko'rsatkichlari yuqori barqarorlikni saqlab qolishi alohida e'tirof etildi. Ijroiy xalqaro reyting ko'rsatkichiga erishishda viloyatda faol o'zlashtirilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi va jadal tashqi savdo dinamikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Xorijlik ishbilanmonlar oqimini ko'paytirish, savdo-iqtisodiy va investitsiya imkoniyatlarini keng namoyish etish maqsadida 2024-yilning 17-18-oktabr kunlari Qo'qon shahrida "Farg'ona — vodiya gahvari. Investitsiyalar va turizm istiqbolari" mavzusida birinchi xalqaro forum o'tkazildi. Forum doirasidagi tadbirlarda dunyoning 30 dan ortiq mamlakatidan 250 ga yaqin tadbirkor qatnashdi. O'tkazilgan muokaralarda umumiy qiymati 223,3 million dollarlik 25 ta investitsiya kelishuv va savdo bitimlari imzolandi.

Viloyatdagi tadbirkorlarni sanoat va qishloq xo'jaligi rivojlangan davlatlarga xizmat safarlariga yuborish, tajriba oshirish orqali hamkorlarni jalb qilish doirasida imzolangan hujjatlar bo'yicha ishlab chiqilgan "yo'l xaritasi"ga ko'ra, qiymati 5,2 milliard dollar bo'lgan 158 ta loyihani amalga oshirish borasida ish olib borilyapti. Janubiy Koreya ishbilanmonlari bilan

umumiy qiymati 219 million dollarlik 12 ta loyiha bo'yicha manzilli kelishuvlarga erishildi. Koreys ishbilanmon doira vakillarining viloyatga tashrifini ko'paytirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni Koreyaga eksport qilish hamda investitsion loyihalarni amalga oshirish maqsadida Koreya davlatida "Farg'ona — Chungchongnamdo" savdo uyi tashkil etildi. Janubiy Koreyaning "POSCO textile Fergana" korxonasi Farg'ona viloyatida ip-kalava ishlab chiqarish tarmog'ida samarali ish olib borayotgan korxonalar sirasiga kiradi. Ushbu mamlakatning "POSCO International" korporatsiyasi tashabbusi bilan Yozyovon tumani hududida paxta-to'qimachilik klasteri faoliyati yo'lga qo'yildi.

Farg'ona shahrida germaniyalik ishbilanmonlar bilan hamkorlikda "Teamdress holding GmbH" MCHJ xususiy korxonasi qiymati 3,2 million dollarlik xorijiy investitsiyalar hisobiga maxsus kiyim-bosh ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilib, 200 ta yangi ish o'ri yaratildi. O'zbekiston — Rossiya hamkorligidagi "Ferghana spinning" MCHJ qo'shma korxonasi qiymati 10,5 million dollarlik investitsiya loyihasi asosida gazlama ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi.

— Mamlakatimizda yetishtirilayotgan paxta xomashyosi yuqori sifati, pishiqiligi hamda zamonaviy to'qimachilik sanoati talablariga to'la javob berishi bilan jahonda mashhur, — deydi korxonra rahbari Ilyos Uraimov. — Bugungi kundagi ustuvor vazifalardan biri mahalliy xomashyolardan qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish. Loyiha doirasida tayyor mato va kiyimlar ishlab chiqarilib, eksportga chiqarilmoqda.

Ko'lami keng islohotlar joriy yilda yanada rivojlanmoqda. Shahar va tuman hokimliklari hamda Markaziy bank bilan hamkorlikda Jahon banki mablag'laridan moliyalashtirilishi ko'zda tutilgan umumiy



qiymati 34 million dollarlik 28 ta istiqbolli loyiha manzilli ro'yxati shakllantirildi.

— Prezidentimizning 2024-yil 3-dekabrda Farg'ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazgan yig'ilishida belgilab berilgan topshiriqlar ijrosi doirasida umumiy qiymati 6 milliard dollarlik investitsiya loyihalari o'zlashtirilishi hisobiga 44 mingga yuqori daromadli yangi ish o'ri yaratiladi, — deydi Nuriddin Mamajonov. — Dang'ara tumanida xitoylik ishbilanmonlar bilan qiymati 10 million dollar bo'lgan gayka va bolt ishlab chiqarish loyihasi, Uchko'priq tumanidagi "Yon Xin" xorijiy korxonasi tomonidan keramika plitalar ishlab chiqarish loyihasi faoliyat boshlamog'ida. Loyiha hisobiga 500 ta yangi ish o'ri va 3 million kvadrat metr mahsulot ishlab chiqarish quvvati tashkil etilib, 10 ta yangi turdagi mahsulot, kavrak, shafrafn singari dorivor giyohlar eksporti yo'lga qo'yiladi.

Quvasoy shahrida "Qo'qon" erkin iqtisodiy zonasi hududi 210 gektarga kengayishi hisobiga 1 milliard dollar

qiymatga ega 185 ta loyiha amalga oshiriladi, 11,8 mingga ish o'ri yaratiladi.

Davlatimiz rahbari 2024-yil 11-12-iyulda Farg'ona viloyatiga tashrif davomida bergan topshiriqlarga muvofiq, Qo'qonda maxsus sanoat zonasi — "Qo'qon texnopark"ni tashkil etish choralari ko'rilmog'ida. Texnoparkka ajratilayotgan 230 gektar yer maydonida dastlabki bosqichda 1,5 milliard dollarlik loyihalarni boshlash va 5 mingdan ortiq yuqori daromadli ish o'ri yaratish reja qilingan. Bundan tashqari, tuman va shaharlardagi 1210 gektar yer maydonlarida maxsus sanoat zonalarini tashkil etish bo'yicha ishlar jadallik bilan olib borilmoqda.

Sirasini aytganda, mamlakatimizda tadbirkor va xorijlik sarmoyadorlar uchun yaratib berilgan imtiyoz va imkoniyatlar ko'lamini keng, rang-barangligi bilan e'tiborni tortadi. Bu hududlar sanoat salohiyatini rivojlantirish, yangi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash orqali aholi bandligini ta'minlash, farovonligini oshirishga xizmat qilayotgani bilan ajralib turadi.

Rasuljon KAMOLOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri





## Yuksalish pallasasi

Millatni millat, davlatni davlat qiladigan dunyoda tan olingan o'chovlar mavjud bo'lib, ulardan biri ta'lim tizimidir. Dunyo tajribasiga nazar tashlasak, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlangan mamlakatlarning ta'lim sifati darajasi yuksak o'rinlarda turadi. Bunday davlatlarda ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi bejiz emas. Sababi mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan ta'lim sohasida qo'lg'a kiritilgan yutuqlar bilan chambarchas bog'liq.



## TASHABBUS VA EZGU G'OYALARDAN AMALIY HARAKATGA

## BU YO'L MAMLAKATNI OYDIN KELAJAKKA ELTADI



Raima SHIRINOVA,  
filologiya fanlari doktori,  
professor

“Hamimizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudrati, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir”, deya ta'kidlaydi davlatimiz rahbari. Bugungi kunda yoshlarni bilim va malakali etib tarbiyalash, jahon taraqqiyotiga mos, raqobatbardosh kadrlar qilib kamol toptirish maqsadida ta'lim tizimi izchil rivojlanib bormoqda. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan oliyog'lar binosigacha yangi qiyofaga kirdi, moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Ayniqsa, respublikamizda yoshlarning sifatli ta'lim olishi, o'z ustida ishlash, yetuk kadrlar bo'lishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan hamda imkoniyat eshiklari ochiq.

So'ngi yillarda O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi tub o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Universitetlar sonining ortishidan tortib, yoshlarning oliy ta'limga qamrov darajasigacha sezilarli natijalarga erishildi. Prezidentimizning farmon va qarorlari oliy ta'lim tizimida keng ko'lami islohotlar boshlanishiga asos bo'ldi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ilm-fan va ta'lim tizimiga taalluqli qator strategik yo'nalishlarni belgilab berdi.



Times Higher Education

akademik izlanishlar orqali nufuzini oshirganidan dalolat beradi. Shuningdek, “QS Asia — 2025”, ya'ni Osiyo universitetlari reytingida 242-o'rinni egallab, TOP-300 universitetlar qatoridan joy oldi. Mazkur reytingning xorijiy professor-o'qituvchilarning universitetga jalb qilinishi — xalqaro hamkorlik ko'rsatkichi bo'yicha 49-o'rinni egallab, 50 ta eng kuchli universitet qatoriga kirdi. Bu o'z-o'zidan xorijiy hamkorlarni universitetga jalb qilish, hamkorlikda ilmiy maqolalar va loyihalar faol olib borilayotganidan dalolat.

Times Higher Education (THE) xalqaro oliy ta'lim tahliliy agentligi joriy yilda 2025-yil uchun dunyoning eng yaxshi universitetlari reytingi — “THE World University Rankings-2025” natijalarini e'lon qildi. O'zbekiston Milliy universiteti reytingda 1001-1200-o'rinlarni qayd etib, dunyoning eng kuchli universitetlari qatoridan o'rin egalladi. Mazkur agentlik tomonidan tartiblanadigan “THE Impact” reytingi natijalariga ko'ra, mazkur oliyog' 16 ta Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha dunyoda 601-800-o'rinlarni qayd etib, o'tgan yilgi natijalarga ko'ra 500 pog'ona yuqoriga ko'tarilganini ko'rsatadi.



Yurtimizdagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining ilk 1000 ta o'ringidagi OTM hamda O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini dunyodagi eng kuchli 500 ta OTM ro'yxatiga kiritish vazifasi belgilab berilgan.

Reytingni ko'zga qiyoslash shundan dalolatki, inson o'z aksini ko'zguda ko'rganda, eng avvalo, ko'rinishiga e'tibor qaratadi, ya'ni libosining rangi,

## Tibbiyot

Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Navoiy filialining jarrohlik bo'limida navbatdagi buyrak ko'chirib o'tkazish murakkab amaliyoti boshlandi. Har bir daqiqa qadrlri, umr qiyamati, bemor yaqinlarining o'y-fikri ushbu umidli jarayonda edi. 19 yoshli Charosxon buyrak yetishmovchiligi tashxisi bilan kasalxonaga yotqizilgan va unda jarrohlik amaliyoti o'tkazish lozimligi mutaxassislar tomonidan xulosa qilingan...

Inson tana a'zolarini ko'chirishda asosan bemorning yaqinlari donor bo'ladi. Sababi ko'chirib o'tkazilayotgan tana a'zolari to'qimalari bir-birimikiga to'g'ri kelishi, bunda esa ko'proq yaqin qarindoshlar donor bo'lishi muhim hisoblanadi.

— Qizim bir necha yillardan buyon shu dard bilan kurashib keladi. Oddiy shamollashdan boshlangan xastalik buyrak yetishmovchiligiga olib keldi, — deydi bemorning onasi Mehriniso Izbosarova. — Tibbiyot xodimlari eng so'nggi

chora jarrohlik va buyrak ko'chirib o'tkazish amaliyoti deganida, bunaqa amaliyotlar faqat xorijda qilinishini eshitganim uchun imkoniyatimiz yetmaydi deb xavotirga tushgandim. Ammo shifokorlar bunday murakkab transplantatsiya jarayonlari shu yerning o'zida ham amalga oshirilishini aytganida, bizda umid uyg'ondi. Otasi qizimga donor bo'lishga qaror qildi.

...Malakali mutaxassislar sa'y-harakatlari bilan navbatdagi murakkab jarrohlik amaliyoti ham muvaffaqiyatli o'tdi. Ta'kidlash joiz, ushbu filialda so'ngi yillarda kasalliklarni davolash va tashxislashda, zarur bo'lganda yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlarini bajarish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Ayniqsa, tibbiyotning eng murakkab, o'ta mas'uliyatli va ayni paytda ehtiyoj ortib borayotgan transplantologiya yo'nalishi bo'yicha ham Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi bilan hamkorlikda boshlangan ishlar o'z samarasini bermoqda.

— Bugungi kunda filialimizda bemorlarda bu kabi murakkab jarrohlik amaliyotlarini o'tkazish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta'minlangani va malakali mutaxassislarni o'qitish, respublikadagi tibbiyot muassasalari bilan yo'lga qo'yilgan hamkorlik bu jarayonlarga imkoniyat yaratmoqda.



Yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlarida shahar va tumanlar tibbiyot birlashmalaridan ham mutaxassislar jalb qilinib, ularning bu borada malakalarini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Avvallari bu kabi amaliyotlar faqat xorijda amalga oshirilgan bo'lsa, hozirda nafaqat viloyat, balki shahar va tumanlardagi tibbiyot

muassasalarida ham o'tkazilmoqda, — deydi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Navoiy filiali direktori Bahrom Jalolov. Ayni vaqtda mazkur shifo maskanida amalga oshirilayotgan yuqori texnologik davolash usullarining turi, sifati va ko'lami yildan yilga ortib boryapti. O'tgan yil davomida Zarafshon,

## KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH — taraqqiyotning o'ziga xos tayanchi

## Nuqtayi nazar

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi inson, uning barkamol rivojlanishi, farovonligini ta'minlash, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoit va samarali mexanizmlarni yaratishdir.



Lutfulla BOZOROV,  
texnika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori, dotsent

Belgilangan maqsadlarga erishish, jamiyatni rivojlantirish, taraqqiyot va kelajak yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi va taqdiri — bularning barchasi birinchi galdagi yuqori malakali, vijdonli kadrlar, yetuk mutaxassislar tayyorlash muammosi bilan uzviy bog'liq.

Prezidentimizning 2024-yil 16-oktyabrdagi “Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni yurtimizda kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlashni yaxshilash va mehnat bozori ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassislarni yetishtirish borasida muhim voqelik bo'ldi.

Hujjatda kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida kasbiy ta'lim tashkilotlari turlarini maqbullashtirish va uning barcha darajalari bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan ko'p tarmoqli o'quv muassasalari tizimini joriy etish, kasbiy ta'lim tashkilotlarining akademik mustaqilligini ta'minlash, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim dasturlarini qo'llash, o'quv jarayonlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, kasbiy ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan maxsus elektron platforma ishlab chiqish kabilik ko'rsatildi. Ushbu maqsadlardan kelib chiqib, kasbiy ta'lim tizimida amaliyot samaradorligini oshirish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni mustahkamlash orqali o'quv dasturlari ishlab chiqish, texnologiyalarni qo'llash jadallashtirildi.

Shuningdek, mehnat bozoridagi ehtiyojlarni tahlil qilgan holda mavjud kasb va mutaxassisliklarni yangilash, innovatsion va texnologik rivojlanish talablariga javob bera oladigan kadrlar tayyorlash yangi bosqichga chiqadi. Ta'lim muassasalarida va xususiy sektor o'rtasida samarali hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Xususiy sektorning ta'lim jarayonidagi ishtiroki kadrlar tayyorlash masalasida, innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni joriy qilishda katta rol o'ynaydi.

Shu o'rinda bugungi kunda ta'lim sohasida ilg'or bo'lgan Shvetsiya, Germaniya va Singapur kabi

mamlakatlar tajribalarini o'rganish va qo'llashga katta e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Masalan, Shvetsiyada kasbiy ta'lim tizimi jadal texnologik rivojlanish va ijtimoiy ehtiyojlarni hisobga olib doimiy yangilanib boradi. Shvetsiya ta'lim tizimi ish beruvchilar hamda davlat o'rtasida samarali hamkorlikni o'rnatib, kasbiy ta'limni innovatsion yondashuvlar asosida mustahkamlab borishi bilan diqqatga sazovor. Mamlakatimizda Shvetsiya tajribasini qo'llash ekologik va ijtimoiy masalalar bilan bog'liq yangi kasblar va texnologiyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Singapurda esa kasbiy ta'lim tizimi davlat va xususiy sektor o'rtasida o'ziga xos hamkorlikka asoslanadi. Bunda ish beruvchilar o'quv dasturlarini ishlab chiqishda faol ishtirok etadi hamda kasbiy ta'lim sifati oshirishga katta hissa qo'shadi.

Mamlakatimiz kasbiy ta'lim tizimida ham davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni bundan-da kuchaytirish maqsadga muvofiq. Bunda xususiy sektorni ta'lim jarayoniga kengroq jalb qilish, o'quv dasturlarining sifati oshirish va yangi mutaxassisliklar kiritib borish asosiy vazifa bo'lishi kerak.

Davlat tomonidan kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirish uchun resurslar ajratilishi, infratuzilma yaratilishi, o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish va o'quvchilarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashning qo'llab-quvvatlashi yaxshi samara berishi allaqachon isbotlangan.

Bu esa xalqaro tajribada mavjud samarali yondashuvlarni milliy ta'lim tizimimizga tezroq moslashtirishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Kasbiy ta'lim faqatgina malakali ishchilar tayyorlashga qaratilgan bo'libgina qolmay, balki milliy iqtisodiyotning o'sishi, innovatsion rivojlanish va mehnat bozorida barqarorlikni ta'minlashda ham yetakchi omillardan biridir. Bir so'z bilan aytganda, mazkur farmon O'zbekistonning kasbiy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lida muhim tayanch vazifasini o'tamoqda.

Farmonda belgilangan maqsad va yo'nalishlar xalqaro tajribalar bilan uyg'unlashgan holda O'zbekistonda kasbiy ta'limni rivojlantirish va mehnat bozorining ehtiyojlariga mos keladigan kadrlar tayyorlashda muhim qadamlar qo'yilishini ta'minlashi shubhasiz. Buning uchun esa belgilangan maqsadlar bekamu ko'st bajarilishi, amalga oshirilgan ishlar muntazam tahlil qilib borilishi ayni muddao.



O'tkazilayotgan har bir jarrohlik amaliyotlari yordamida bemorlar sog'lom hayotga qaytarilayotgan bo'lsa, bu jarayonlarning amaliy ishtirokchisi bo'lgan talabalar kasbiy ko'nikmalarini shakllantirmoqda.

Murakkab jarrohlik amaliyotlarining nafaqat poxyatimiz, balki viloyatlardagi davolash muassasalarida ham muvaffaqiyatli bajarilayotgani sohaning moddiy-texnik bazasi va tibbiy kadrlar salohiyati davr bilan mutanosib ravishda takomillashtirish borayotganini ko'rsatadi. Buning natijasida viloyatlar ahlining ushbu murakkab amaliyotlar uchun poxyatga yoki chet mamlakatlarga davo izlab chiqishi, ovoragarchiliklarning oldini oladi. Yuqori texnologik amaliyotning samarali bajarilayotgani esa ko'plab bemorlarning dardini aritib, umrini uzaytirishga sabab bo'layotir. Natijada oilalarda sog'lom muhit va farovon turmush qaror topib, onalar va bolalarning baxtiyor hayot kechirishi, mo'tabar keksalarimizning minnatdorlik hamda shukronalik hissi bilan umrguzaronlik qilishiga zamin yaratmoqda.

Muxtasar aytganda, tibbiyot sohasidagi islohotlarni mamlakatimizning har bir hududidagi aholi o'z hayotida his qilmoqda. Ayniqsa, Navoiy viloyatining cho'l hududlaridagi ovullarga ham zamonaviy tibbiyotning yetib borгани yurtimizda ana shu islohotlardan ko'zlangan maqsadlarga erishilayotganidan dalolat.

G'olib ABDUSALOMOV,  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



# RUHIY VA JISMONIY UYG'UNLIK

## Yoxud qishki bog' qo'ynidagi muhtasham manzara



Risolat MADIYEVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Kamharakat yashash yo'sini ommaviy tus olgan, ekologik muammolarning global tahdidi inson salomatligini ham chetlab o'tmayotgan bir paytda sog'lom turmush tarziga rioya etishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Xotirjam va farovon hayot kechirish, ko'plab asoratli xastaliklarning oldini olishda to'g'ri ovqatlanish, muntazam harakatda bo'lish, kun tartibi va ishini rejim asosida tashkil qilish, ruhiy osovishlik muhim o'rin tutadi.

Ayniqsa, sog'lom turmush tarzining asosiy tamoyillaridan sanalgan jismoniy tarbiya salomatlikni saqlash va mustahkamlashda beqiyos ahamiyatga ega. Quvonarlisi, buni anglab yetayotgan yurtdoshlarimiz soni tobora ortib bormoqda. So'lim go'shalar, dam olish maskanlari, sport maydonchalari erta tongdan harakatdagi yurtdoshlarimiz bilan gavjum bo'lib borayotgani bunday deydikimizga asos bo'lmoqda. Inson hayotining tabiat bilan bog'liqligi, ayniqsa, istirohat bog'lari, dam olish maskanlarida jismoniy mashg'ulot qilayotgan yurtdoshlarimiz harakatlari, o'y-fikrlarida yaqqol namoyon. Shunday sportsevarlar bilan suhbatlashish uchun poytaxtimizning so'lim go'shalaridan biriga yo'l oldik.

Bu yerdagi yoga ayvoni, mini futbol, plyaj voleyboli, tennis maydonchalari erta tongdan sog'lom turmush tarzini tanlagan yurtdoshlarimiz bilan to'lgan. Sportsevar yoshlarning biri to'p tepgan, yana biri voleybol to'pini to'rdan oshirishga harakat qilayapti. Badminton maydonchasida ham bellashuv qizg'in. "Workout" maydonidagi trenajyorlarda yigit-qizlar mashg'ulot bajaryapti. Nariroqdagi ochiq joyda esa turli yoshdagi 25-30 chog'li yurtdoshimiz murabbiy ko'magida badantarbiya mashqlarini bajarish bilan band. Ularga yaqinroq bordik. Ishitirokchilar murabbiyning ko'rsatmalarini jon qulog'i bilan tinglab, unga qat'iy amal qilmoqda. Tabiat qo'ynida, ochiq havoda bajarilayotgan

bu harakatlar bizga taraqqiyot mahsuli bo'lgan barcha qulayliklardan chekinib, tabiiylik sari yuzlanishga undagan muvozanatni eslatdi. O'zaro insoniy munosabatlar, intilishlar, maqsad sari kurashlar, yo'ldagi to'siqlar va uni yengib o'tish borasidagi yechimlar ana shu harakatlar silsilasida ko'z oldimdan o'tdi. Ajab manzara. Beixtiyor kayfiyat ko'tariladi. Axir bu insonlarning har biri salomatlikka, jismonan yetuklikka intilmoqda. Ruhaniyat va ma'nan bardamlikka ehtiyoji bor. Bir-biriga mullatqo begona insonlarning erta tongdan bir joyda jamlanishi, muloqot qilishi, tabiat qo'ynida jismoniy, o'z o'rnida ruhiy tarbiya bilan mashg'ul bo'lishi zamirida ana shu ehtiyoj ustuvor ekanini his qilish qiyin emas.



"OB-HAVOGA PARVO QILMAYMIZ"

— Guruhimiz "Pingvin" deb nomlanadi, — deydi Mavludaxon Rahmonqulova badantarbiya mashqlarini bajarish asnosida. — Bejiz bunday nomlaganmiz. Chunki qor yoki yomg'ir, sovuq va izg'irin ob-havo mashg'ulotimizga xalal bermaydi. Yozning jazirama issigi,

qishning qahratonida ham erta tongdan shu yerda yig'ilamiz. Bu yerga kelishimdan oldin tizzam qattiq og'riqdan bukilmasdi.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



## "OXIRGI MARTA QACHON DORIXONAGA ISHIMIZ TUSHGANINI ESLAY OLMAYMAN"



Mutaxassislar fikricha, bugun inson sog'lom turmush tarziga amal qilish orqali 100-120 yoshgacha umr ko'rishi mumkin. Bunda, albatta, oziq-ovqat ta'minoti, dam olish, sifati tibbiy xizmat, yashash va ishlash uchun yetarli shart-sharoit qatorida jismoniy yuklamaning ham o'rni alohida. Harakat organizm quvvatini oshirishi, ijobiy, sog'lom o'zgarishlarga turki berishini bugun tonggi sayrga chiqqan, badantarbiya bilan mashg'ul har bir yurtdoshimiz anglab yetayotgani, ular safi tobora kengayib borayotgani quvonarlisi. O'zini dzyudo bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasi Abdulkarim Tangriyev deb

tanishtirgan yurtdoshimiz suhbatga qo'shiladi: — Xalqimiz "Sog' tanda sog'lom aql" deya bejiz aytmagan. Oila a'zolarim uchun tabiat qo'ynida, toza havoda shug'ullanish odatga aylandi. Har kuni ertalab shu yerga kelamiz. Kimdir piyoda yuradi, kimdir yuguradi, trenajyorlarda shug'ullanamiz, guruhda badantarbiya mashqlarini bajaramiz. Kasalliklar chekingan, oxirgi marta qachon dorixonaga ishimiz tushganini eslay olmayman. Oilada ruhan tetiklik, ma'naviy sog'lomlik bor. Stresslarga o'rin yo'q. Sport bilan shug'ullanarkansiz, yashashdan ko'nglingiz to'layotganini his qilasiz.

## "SPORT ENG MUHIM JIHATLARGA E'TIBOR QARATISHNI O'RGATADI"

"Inson o'zini, tabiatini boricha qabul qilarkan, qalb xotirjamligi, maqsadlar qo'yish va ularga erishish, o'zi va turmush tarzini boshqarish qobiliyatiga ega bo'ladi. Muhimi — shu qobiliyatni rivojlantirish. Yoshligimda zaif va nimjon bo'lganman. Bir oz tortinchoq edim, o'zimga ishonchim yuqori emasdi. Shu boisi, sport bilan shug'ullanishga qaror qildim. Shu-shu sport hamrohimga aylandi. Bora-bora muloqot qobiliyatim yaxshilandi. O'z-o'zinni hurmat qila boshladim. Bu atrofda gilarining menga hurmatini oshirdi. Yangiliklarga ochiq bo'ldim. Shuning evaziga muammolarni nostandart, ammo samarali usullarda hal qilishni o'rgandim".

Bu men bog'da, mashg'ulotlar paytida tanishgan 83 yoshli trener ayolning gapi. U bilan uzoq suhbatlashdik. O'zini Lyubov Ivanovna deya tanishtirgan ayol har kuni ertalab mashg'ulot o'tash uchun shaharning boshqa chekkasidan shu yerga yetib kelar ekan. U jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishni istagan yoshu keksa bilan ishlaydi. Mashqlar bosh, yelka, qo'l, oyoq, tizza — butun organizm faoliyatini yaxshilashga yo'naltirilgan. Mashg'ulotlar mullatqo bepul. Ayolning yuziga razm solaman. Yengil, deyarli sezilmaydigan tabassum, hayratlanarli darajada jonli ifoda yuziga o'z gacha ma'no bergan, kamtarona bosh kiyimidan chiqib turgan oppoq sochi hayoti

shunchaki o'tmaganidan darak berib turardi. U bajarayotgan mashqlari kabi ravon va shoshmay so'zlaridi:

— Sport insonga eng muhim jihatlarga e'tibor qaratishni o'rgatadi. Hayotda sizni orzularingizga erishishdan chalg'itadigan ko'p narsalar bor. Ham ruhan, ham jisman tanazzulga olib kelishi mumkin bo'lgan bunday holatlarda jismoniy yuklama sizga ko'makka keladi, — deydi u. Ayolning soddaligidan ko'nglim yorishadi. Suhbat mag'zini tahlil etarkanman, o'zimcha yangi dunyo ochgandek xursand bo'laman. Kishining o'z "men"ini topishga, halollikka intilishi, bu dunyodagi qadr-qimmatini va ahamiyatini his qilishga ehtiyoji oson kechmasligini bilaman. Ammo bu evrilishlar insonni fazilatli qilish ham ayon haqiqat.

"Psixologlarning ta'kidlashicha, jismoniy faollik odamni tashvish va ruhiy tushkunlikdan xalos qiladi. Sport nafaqat jismoniy, balki ichki, ma'naviy-ruhiy quvvatni oshiradi, yangiliklardan cho'chimaslik, qiyinchiliklarga tik qarash, ularni yengish, o'zini qayta tiklashni o'rgatadi", deydi suhbatdoshim. Hayot sifatini oshirish, berilgan umri aqliy, jismoniy va ma'naviy jihatdan yaxshiroq kechirish, o'z galarga ezigulik ilinishda ibrat bo'ladigan shunday insonlarning borligi ko'ngilga oydinlik bag'ishlaydi.

## "10 MING QADAM YURISHNI ODATGA AYLANDIRGANMIZ"



Odamlar bilan gaplasharkanman, ko'nglimga yorug'lik inadi. Ularning barchasi jismoniy mashg'ulotlar hayotiga ijobiy o'zgarishlar berayotgani, sog'liq bilan bog'liq muammolari barham topgani, salomatligi, kayfiyati yaxshilanayotgani haqida so'zlaydi. Bu esa bugungi shiddatli davrda sog'lom turmush tarzining ahamiyati nechog'liq ortayotganidan darak beradi. Aslida, butun dunyoda sog'liqni saqlash va muhofaza etish tendensiyalari davom etmoqda. Aksariyat kishilar zararli odatlardan voz kechish, to'g'ri ovqatlanish, nafaqat jismoniy,

balki ruhiy salomatlikni yaxshilash imkonini beruvchi sport turlari bilan shug'ullanishga intilmoqda. Buning uchun yurtimizda zarur sharoit yaratilgan. Bog'lar, dam olish maskanlari, sport maydonlari sog'lom turmush tarzini istayotganlar bilan to'layotgani ko'ngilga xotirjamlik beradi. Ular bilan suhbatlashishga harakat qilaman.

— Mirobod tumanida yashaymiz. Bu bog' uyimizga uncha yaqin bo'lmasa-da, har kuni ertalab turmush o'rtog'im bilan 10 ming qadam yurish uchun shu yerga kelishni odatga aylantirganmiz, — deydi Fozil Karimboyev. — Bu sog'lig'imiz yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatyapti. Vazn tashladik, qandli diabet, qon bosimi kuzatilmaydi. Ilgari ko'p shamollardim. Hozir immunitetim yaxshi, deyarli dardga yo'liqmayman. Ammo piyoda yurishni, sayni tark etganim zahoti lanjlik, og'irlik hissi paydo bo'ladi. Shu boisi, mashg'ulotlarni kanda qilmayman. Bog' bahavo, ozoda, odamning dili yayraydi. Sayr qilish, yurish asnosida oilaviy masalalar, bolalar tarbiyasi haqida gaplashib olamiz.

Mutaxassislar fikricha, yavov yurish yurak-qon tomir kasalliklari xavfini 31 va o'lim xavfini 32 foiz qisqartiradi. Yurish ko'krak bezi saratonni va ikki turdagi qandli diabet kasalligiga chalinishni kamaytiradi. Bundan tashqari, suyak va mushaklarni mustahkamlaydi, arterial bosim, qonda xolesterin miqdori tushishiga sabab bo'ladi, uyquni yaxshilaydi. Kuniga 10 ming qadam yurgan insonning bir oyda kasallik alomati kamayib, 9-10 kilogacha ortiqcha vazndan qutuladi.

## OCHIQ HAVODAGI MASHQ HECH QANDAY TO'LOV TALAB ETMAYDI

Ochiq havodagi jismoniy faollik qon bosimi va yurak urish tezligini pasaytirishga yordam beradi. Insonning ruhiy holatiga ijobiy ta'sir qiladi. Tabiiy landshaftlar tufayli endorfin — tashvish va stressni kamaytiradigan baxt gormoni ishlab chiqariladi.

Piyoda, skandinavcha yurish, velosipedda sayr qilish, yugurish, yoga, badantarbiya va sportning boshqa turlari bilan mashg'ul bo'lish mumkin. Qiziqarli va ko'p qirrali mashg'ulotlar turli yoshdagi, maqsadi va maslagi mushtarak insonlarni bir joyda jamlaydi, ijtimoiy aloqalarni rivojlantiradi. Ishitirokchilar o'zaro muloqot orqali yaxshi tajribalarni o'rganishi, bir-biri bilan baham ko'rishi mumkin.

— Har kuni ertalab yugurish uchun boqqa kelamiz, — deydi "Do'stlik Toshkent" futbol klubi o'yinchisi Sardor Hojiboyev. — Bu yerda do'stlar ortirdim. Ular bilan ba'zida futbol o'ynaymiz. Sport insonni sabrga, chidamlilikka o'rgatadi. Vaqtni to'g'ri taqsimlayman, jismonan va ruhan tetik bo'lishga harakat



qilaman. Salomatligimdan shikoyatim yo'q. Oila a'zolarim meni ko'rib, sport bilan shug'ullanishga qaror qilgan. Masalan, onam ovqat hazm qilishda qiynalardi. Sekin-sekin yurish, mashqlarni bajarishga odatlangani tufayli bu muammo ortda qoldi.

Ochiq havodagi sayr va mashqlar salomatligimizni asrash va mustahkamlash, hayotimiz sifati uchun muhim. Qolaversa, bu hech qanday to'lov talab etmaydi. Natija esa amalda — salomatligimizda namoyon bo'lib boraveradi.

## SOG'LOM INSON — JAMIYATNING BEBAHO BOYLIGI

Har bir inson qiziqarli va sermahsul hayot kechirishni xohlaydi. Jamiyatda o'z o'rnini topish, kasbiy faoliyatida o'zini anglash, kashf etish, oilaviy munosabatlarda mutanosiblik, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish hayotga rang-baranglik bag'ishlaydi. Ammo salomatligi pand bersa, tiniq fikr va dunyoga ijobiy munosabada bo'lmasa, hayotda muvaffaqiyatga erishish oson emas. Shuning uchun inson hayotining turli qirralarini rivojlantirish va faol uzoq umr ko'rishga erishishning eng muhim sharti sog'lom turmush tarzidir.

Yaqinlarning xotirjamligi, kelajagi uchun mas'ul shaxs o'zida salomatlik madaniyatini qaror toptiradi. Salomatligiga shaxsiy javobgarlik hissi — oila a'zolarining sog'lig'i, tinch va osuda kunlari, farzandlarning baxtli va farovon hayot kechirishi tomon



qo'yiladigan muhim qadam. Sog'lom millat kamoli esa jamiyatning bebaho boyligi, kuchli davlat belgisidir.

Ana shu xayollar bilan bog'ni tark etarkanman, go'zallik va tinchlik ramzi bo'lgan bu so'lim maskan salomatlik

istagan, harakatdagi odamlar bilan yanada ko'rakmlashganiga guvoh bo'laman. Bog' chetidan o'tgan anhor suvida osmonning aksi ko'zga tashlanadi. Daraxtlar boshi egik, sukutga cho'mgan, bu landshaftning go'zalligini yanada oshiradi. Etni junjiktirayotgan sovuq havo suv yoqalab yurayotgan, yugurayotganlarga ta'sir qilmaydi. Ularning ruhiyatida sokinlik hukmron. Nariroqda — butalar, daraxtlar orasida mashq qilayotganlar tiriklikning qadri nechog'liq baland ekani, sog'lom va to'laqonli hayot istagini ifoda etayotgan bo'lsa, ajab emas. Tabiatga chuqur hissiy bog'lanishning jismoniy faollik bilan uyg'unligi muhtasham manzarani yuvjudga keltirgan, atrof nihoyatda huzurbaxsh edi.